

INTERNET MULOQOTIDA KREOLLASHGAN MATNLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

To‘xtasinova Nargizaxon Abdurashid qizi

Andijon davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ilmiy tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida ma’lum bo‘ladiki, insonlarning katta qismi ma’lumotlarni ko‘rish, ya’ni vizual yo‘l bilan tez va oson qabul qiladi. Axborotlarni ikki va undan ortiq mediavositalar qorishuvi orqali uzatish murakkab axborotni ham oson, ham tushunarli qabul qilish imkonini beradi. Buning natijasida esa kreollashgan matnlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun kreollashtirilgan matnlarda shakl va ma’no mushtarakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada bu kabi kreollashgan matnlarning nazariy asoslari xususida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** internet muloqoti, kreollashgan matn, lingvokulturologiya, vizual, reklama, verbal komponent, verbal vosita, axborot.*

***Annotation:** As a result of scientific studies and observations, it is known that the majority of people receive information quickly and easily by seeing, that is, visually. The transmission of information through a combination of two or more media makes it possible to receive complex information both easily and comprehensibly. As a result, creolized texts appear. Therefore, the commonality of form and meaning is important in creolized texts. The article deals with the theoretical foundations of such creolized texts.*

***Key words:** Internet communication, creolized text, linguoculturalism, visual, advertisement, verbal component, verbal tool, information.*

***Аннотация:** В результате научных исследований и наблюдений известно, что большинство людей быстро и легко получают информацию посредством зрения, то есть зрительно. Передача информации посредством сочетания двух и более сред позволяет легко и понятно получать сложную информацию. В результате появляются креолизованные тексты. Поэтому в креолизованных текстах важна общность формы и значения. В статье рассматриваются теоретические основы таких креолизованных текстов.*

***Ключевые слова:** Интернет-коммуникация, креолизованный текст, лингвокультурализм, визуальное, рекламное, вербальный компонент, речевое средство, информация.*

Kirish

Zamon bilan hamnafas bo‘lib yashash har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Yangilanishlar davri bo‘lgan bugungi axborot texnologiyalar

asri insonlar turmushi bilan bir qatorda axborot olishga bo'lgan talabni ham o'zgartirib yubordi. Bugun auditoriya alohida matn yoki odatiy ovozi tasvir va so'z uyg'unligidagi sodda tuzilishdagi materiallar bilan cheklanmay o'ziga xos qabul qilinishi oson, qulay, qiyin axborotni ham yengil, ham esda qolarli va ko'rkam tarzda olish istagida. Bu auditoriyaning axborot olishga dangasaligidan emas, balki ularda axborot olish didining shakllangani, informatsiyaga bo'lgan talablari ortganidan dalolat beradi. Shu jihatdan, bugun axborot uzatishning zamon va auditoriya talabidan kelib chiqqan holda yangi shakllari rivojlanmoqda. Auditoriya global kenglik va ulkan axborot oqimlarida yengil va oson qabul qilinadigan axborotlarga ehtiyoj sezmoqda. Bunday ehtiyojlarni qondirishda axborotlarni multimedial imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, axborotni vizual taqdim etish qo'l kelmoqda. ¹

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslikda kreol atamasi ikki yoki undan ortiq tillarning o'zaro ta'siri natijasida qorishiq tilning hosil bo'lishini anglatadi. Shu asos matnga nisbatan qo'llanganda, kreolizatsiya lingvistik va paralingvistik usullarda birlashtirilgan matn tushunchasini ifodalaydi. ²

Kreollashtirilgan matn ikki qismdan iborat: og'zaki va og'zaki bo'lmagan, konseptual, mazmun va kompozitsion darajalarda bog'langan va ko'pincha mavjud milliy madaniy an'analar bilan bog'liq bo'lgan matn. Dastlab "kreolizatsiya" tushunchasi turli etnik guruhlarning qonini aralashirish natijasida yangi etnik guruhlarning vujudga kelish jarayonini bildirgan. Shu yerdan bu tushunchaning ikkinchi ma'nosi - bir nechta aralashirish natijasida yangi tilni shakllantirish jarayoni kelib chiqadi. 1990-yilda Y.A.Sorokin va E.F.Tarasov ikkita bir hil bo'lmagan qismdan tashkil topgan matnlarga nisbatan "kreollashtirilgan matn" atamasini kiritishni taklif qildilar. ³

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada tilshunoslik va madaniyatshunoslikning o'zaro aloqadorligi asosida yuzaga kelgan, lingvokulturologiyaning o'rganish obyektlaridan biri bo'lgan mediamuloqot, xususan, internet muloqotidagi kreollashgan matnlarning nazariy asoslari turli amaliy va metodologik yondashuvlar bilan tahlil qilindi. Ushbu metodlar ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jarayonlarini tahlil qilish asosida to'plangan materiallar asosida izohlab beriladi.

Tahlillar va natijalar

¹Egamberdiyeva F. Egamberdiyeva Sh. Инфографика - вербал медиаматни креолашган медиаматнга айлантирувчи восита// **Science and Education, Scientific Journal, 2021.-B. 1**

² Чижикова С.Н. Вербальные и невербальные компоненты в креолизованных текстах (на примере мультимедийных презентаций) // Концепт., 2016. – №2. – С.7.

³ Сорокин Ю.А., Тарасов Е.Ф. Креолизованные тексты и их коммуникативная функция // Оптимизация речевого воздействия. – М.:1990. – С.180

Kreollashtirilgan matnlarda shakl va ma'no mushtarakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mediamatnlarda yozuv va shakliy birliklar yagona semantik makonda birlasha boshlaydi, bir-biriga kirib boradi, bu esa kerakli fikrning izchilligi va yaxlitligiga, shuningdek, ma'lum bir kommunikativ vazifa bajarishiga olib keladi.

Kreollashgan matnlar – semiotik jihatdan boyitilgan matnlardir. Muloqot jarayonida so'z va tasvirni sintez qilish bir qator yangi janrlar va vizual san'atning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Verbal matnlarni kreollashtirish yo'li bilan grafik tarkib, shuningdek, matn mazmuniga ta'sir qiluvchi barcha dizaynlarni o'z ichiga oladigan tarkib yoki komponentlar mavjudligi aniqlandi.¹

Kreollashgan reklama matnlarida verbal komponentlar muayyan o'ziga xos vazifalarga ega bo'lib, ular, avvalo, til tizimi qoidalariga rioya qilingan holda qo'llaniladi. Tanlangan sarlavha, sintaktik jihatdan bog'langan asosiy qism, aniq ko'rsatilgan manzillar, tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga ega. Verbal vositalar ko'rgazmali yoki tasvirli reklama matnini to'ldiradi, izohlaydi va iste'molchi ongiga mahsulot tavsifi, manzili va imkoniyatlari, umuman aytganda, o'ziga yuklatilgan vazifani singdirishda muhim rol o'ynaydi. Reklama matnlarida sarlavhaning ko'rinishi (rangi, harflar hajmi, qiziqarli nomlanishi va joylashgan o'rni) eng samarali va fikr qo'zg'atuvchi komponent hisoblanib, u reklama g'oyasini ham targ'ib etadi. Buni sarlavha matni tayyorlanayotganda inobatga olish zarur.²

Kreollashgan matnlar ikki va undan ortiq mediavositalar qorishuvidan hosil bo'lgan matn hisoblanadi. Kreollashgan matnlarni, asosan, video, audio, tasvir ko'rinishidagi reklama matnlarida ko'rishimiz mumkin. Turli tasvirlarning muayyan jumlalar bilan uyg'unlashuvidan hosil bo'lgan reklamalar yon-atrofimizda talaygina. Xususan, shu kunlarda ko'zimiz tushgan reklama matnlaridan birini misol qilib keltiramiz. “Stomatologiya. Ayol shifokor bor”. Shifokor fotosurati tushirilgan ushbu reklamanning o'ziga xos tomoni unda “ayol shifokorning ham borligi” haqidagi xabarning mavjudligi. Aksariyat ayollar tortinish, iymanish sabab erkak shifokorlar qabulida bo'lishni xushlamaydilar va bu turdagi reklama ularning e'tiborini tortishi aniq.

Bugungi kunda internet tarmoqlarining imkoniyatlari nihoyatda kengayib ketdi. Xususan, You Tube platformasi kuchli marketologlarni bir maydonga jamladi. Bir mahsulotning reklamasini video ko'rinishida olish, unga ovoz qo'shish, orqa fon

¹ Egamberdiyeva F. Egamberdiyeva Sh. Инфографика - вербал медиаматни креоллашган медиаматнга айлантирувчи восита// Science and Education, Scientific Journal, 2021.-B.5

² Abdullayev B. Kreollashgan matnlarning reklama mahsulotidagi o'rni// Science and Education, Scientific Journal, 2021. –B.4.

uchun videoga mos musiqa tanlash moddiy manfaat toppish uchun harakat qilayotgan marketologlarning “bozorini chaqqon qildi”.

Xulosa

Demak, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, mediavositalar orqali bir tomonlama uzatmadan ko‘ra, kreollashgan matnga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. Kreollashgan matnlar ommaviy axborot vositalarining barcha turlari, xususan, televideniye, radio, matbuot, internet tarmoqlariga kirib bordi. Kreollashgan matnlar bir necha mediavositallarni o‘zida birlashtirgan holda, axborot yetkazishning mukammal ko‘rinishi sifatida ommalashib ketdi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev B. Kreollashgan matnlarning reklama mahsulotidagi o‘rni // Science and Education, Scientific Journal, 2021. –B. 4.

2. Egamberdiyeva F. Egamberdiyeva Sh. Инфографика - вербал медиаматни креоллашган медиаматнга айлантирувчи восита // Science and Education, Scientific Journal, 2021. -B. 1, -B. 5

3. Сорокин Ю. А., Тарасов Е. Ф. Креолизованные тексты и их коммуникативная функция // Оптимизация речевого воздействия. – М.:1990. – С. 180

4. To‘xtasinova N. Mediamatn – Medialingvistikaning yetakchi obyekt // O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, ISSN:2181-3302, 17-son. 30. 04. 2023.

5. To‘xtasinova N. Globallashuv jarayonida mediamuloqot va mediamadaniyatning o‘ziga xos jihatlari // Ilm-fan, ta’lim va san’at integratsiyasi: istiqbolli rejalar Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya. -Shimkent, 2023.

6. Чижикова С. Н. Вербальные и невербальные компоненты в креолизованных текстах (на примере мультимедийных презентаций) // Концепт., 2016. – №2. – С. 7.